



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 2-son

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **MUXITDINOVA FIRYUZA ABDURASHIDOVNA**

Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishning ayrim nazariy-huquqiy masalalari

14 **AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**

Afini demokratiyasining evolyutsiyasi va ta'siri: tarixiy-qiyosiy yondashuv

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

26 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**

O'zbekistonda soliq tekshiruvi vazifalari va prinsiplari hamda qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **MELIYEV XUDOYOR XURRAMOVICH**

Yuridik shaxslarning jinoiy va ma'muriy javobgarligi

45 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisining vafot etishi munosabati bilan vujudga keladigan fuqarolik (korporativ) huquqiy oqibatlar

56 **MAMANAZAROV SARDOR SHUHRATOVICH**

Big Data sohasida sun'iy intellektning huquq va majburiyatlari: muammolar va yechimlar

67 **AKRAMOV AKMALJON ANVARJON O'G'LI**

O'zbekistonda raqamli meros va uning huquqiy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 85 ХАЛМУМИНОВ ЖУМАНАЗАР
ТАШТЕМИРОВИЧ**
Современное состояние энергетического
законодательства Республики Узбекистан и
правовые вопросы его совершенствования

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 89 КОМИЛЖОНОВ САРВАР ШУХРАТ УГЛИ**
Правовой статус и полномочия участников и
субъектов доследственной проверки

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 102 GULYAMOV SAID SAIDAXROROVICH,
ABDIXAKIMOV ISLOMBEK BAHODIR O'G'LI**
Kvant tahdidi: kvant hisoblashning xalqaro
kiberxavfsizlikka ta'sirini va yangi huquqiy
bazalarga shoshilinch ehtiyojni o'rganish
- 113 ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ,
КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА**
Уникальный научный консорциум
учёных, юристов, цивилистов

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.2./WCTX5620>

UDC: [346.15+346.26]:316.346.2-055.2(045)(575.1)

XOTIN-QIZLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA KENG JALB QILISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0003-1721-0189

e-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat masalasidagi davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va ularning normativ-huquqiy asoslari, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollarning ahamiyatini oshirish masalalariga e'tibor berilgan. Maqola tadqiqotining obyekti xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, kasbga o'qitish va bandligini sifat jihatidan ta'minlash, ularni tadbirkorlik va biznesga keng jalb etish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir. Tadqiqot olib borishda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy usullardan foydalanilgan. Muallif tomonidan ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga davlat va jamiyat taqdiriga daxldor qarorlarni hayotga tatbiq etish, xususan, qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida bevosita qatnashishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, huquq, erkinlik, tadbirkorlik, ilm-fan, innovatsiya.

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ШИРОКОГО УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна,

доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются системные реформы, реализуемые в рамках государственной политики по отношению к женщинам в Узбекистане, её нормативно-правовая база, связанная с защитой прав, свобод и законных интересов женщин, повышением их социальной активности, статуса в обществе и семье, а также уделено внимание вопросам повышения роли женского труда в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства, женщин-предпринимателей в современном мире, мерам поддержки женского предпринимательства и создания деловой среды, повышения правовой грамотности и значимости женщин в развитии частного предпринимательства. Объект исследования в статье связан с обеспечением экономической независимости женщин, защитой их прав и законных интересов, обеспечением качественной профессиональной подготовки и трудоустройства, вовлечением их в предпринимательство и бизнес, а также

обеспечением прав и законных интересов женщин, нуждающихся в социальных услугах. Предметом исследования являются нормативно-правовые документы, регулирующие предпринимательскую деятельность женщин, научно-теоретические взгляды. В исследовании использовались исторический, сравнительно-правовой, логический, научный методы. Автор проанализировал непосредственное участие женщин в процессах защиты своих прав и законных интересов, реализации решений, влияющих на судьбу государства и общества, в частности в процессах разработки, принятия и реализации реформ.

Ключевые слова: женщины, закон, свобода, предпринимательство, наука, инновация.

SOME THEORETICAL AND LEGAL ISSUES OF WOMEN'S BROAD PARTICIPATION IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES

Mukhitdinova Firyuza Abdurashidovna,

Tashkent State University of Law,
Professor, Doctor of Sciences in Law

Abstract. The article focuses on the new reforms carried out in the framework of the state policy on the issue of treatment of women in New Uzbekistan and their legal framework, protection of women's rights, freedoms, and legitimate interests, increasing the social activity of women today, increasing their position in the family and society, and the issues of increasing the role of women's labor in the development of small business and private entrepreneurship, the role of women entrepreneurs in the modern world, support for women's entrepreneurship, and the creation of a business environment. The object of the research in the article is to ensure the economic independence of women, protect their rights and legitimate interests, ensure high-quality professional training and employment, and broadly involve them in business activities and the system of social and legal relations related to ensuring the rights and legitimate interests of women in need of social protection. The subject of the research is normative legal documents regulating women's entrepreneurial activity and scientific and theoretical views. The study used historical, comparative-legal, logical, and scientific methods. Reforms in the judicial sphere were also analyzed by the author in order to protect the rights and legitimate interests of women and find a fair solution to their problems within the framework of the law.

Keywords: women, law, freedom, entrepreneurship, science, innovation.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ushbu masala yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, ta'lim olishlari va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratilishiga, turmush sharoitlarini yaxshilashga va eng asosiysi, huquq va erkinliklarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi va aniq natijalarga erishildi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning davlat boshqaruvi va tadbirkorlik sohasidagi ishtirokini yanada kengaytirish, iste'dodini yuzaga chiqarishga ko'maklashish, ehtiyojmand xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash borasida xalqaro standartlar asosida aniq choralarni belgilanib, respublikaning barcha hududlarida tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish va zamonaviy kasblarni o'rgatish bilan bog'liq masalalar sohada dolzarb yo'nalish va asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda

PF-29-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi, 2022-yil 2-martdagi PF-81-son “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarni faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-sonli qarorlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda bandligini oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Shuningdek, mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko'tarish, ularning bandligiga ko'maklashish maqsadida, 2024-yil mart oyida Senat Raisi boshchiligidagi maxsus komissiya tashkil etilib, har bir hududda, xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qilish masalasi ustuvor qilib belgilandi.

Material va metodlar

Maqola tadqiqotining obyekti ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir.

Tadqiqot olib borishda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy usullardan foydalanilgan.

Maqolada ko'tarilgan muammolar huquqshunos olimlardan G'.A. Abdumajidov, I.R. Astanov, D.B. Bazarova, B.X. Pulatov, S.M. Rahmonovalarning ilmiy ishlarida qisman tahlil etilgan. Fuqaroviy-tadbirkorlik bilan bog'liq masalalar Z. Esanova, D. Karaxodjayeva, N. Imomov kabi olimlarning ilmiy ishlarida uchraydi.

Xotin-qizlar va ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ushbu yo'nalishda xalqaro tajriba X. Abduramanov, Sh. Zokirov, N. Abdullaxonov, G. Abdivoxidova, I. Toshmatova, D. Axmedova, Sh. Abdullayeva, M. Umarxodjayeva, A. Umarxodjayeva, M. Abduraxmanova, D. Rasulova, J. Muxlisalarning ilmiy tadqiqot ishlarida chuqur tahlil qilingan.

Biroq yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning bandligini ta'minlash bilan bog'liq metodologik va huquqiy jihatlar kompleks tahlil etilmagan.

Tadqiqot natijalari

So'nggi yillarda O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev boshchiligidagi barcha sohalar, xususan, milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, investitsiyaviy jozibadorlikni mustahkamlash, kichik va o'rta biznesni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mazkur islohotlarda milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishida amalga oshirilayotgan barcha dolzarb vazifalar singari xotin-qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xotin-qizlarni barcha sohalar singari tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning bandligini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi va bugungi kunda

xalqaro tendensiyalardan kelib chiqqan holda mazkur yo'nalishlarda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotchi M. Jumayeva o'zining ilmiy ishida hozirgi davrda ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini hisobga olgan holda uning rivojlanish omillari, amal qilish tamoyillari, ayollar boshchiligidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi va o'ziga xos jihatlari, ayollar tadbirkorligini turli darajalarda qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va ilmiy-uslubiy asoslarini ochib berish, ayollar tadbirkorligiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash uslubiyotini takomillastirish dolzarb ekanligini va bu borada dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan alohida e'tibor berilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifaligini ta'kidlaydi[1].

Bugungi kunda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish va ularning bandligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar sohaning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirishning dolzarb muammolaridan biri sifatida yuzaga chiqmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 2022-yilda e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, "Ayollar mehnat faoliyati davomida hali ham munosib ish uchun jiddiy to'siqlarga duch kelishmoqda [2].

Mazkur masalaga jahon hamjamiyatida ham alohida e'tibor qaratilib, aynan xotin-qizlarni keng tadbirkorlikka jalb qilish davlat va jamiyat rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining 50 %ga yaqinini ayollar tashkil etib, ularning jahon yalpi ichki mahsuloti ulushidagi hissasi 40 %ni tashkil etmoqda [3].

Masalaning jiddiyligini inobatga olib, Jahon banki bandlik sohasida gender tafovut bartaraf etilsa, uzoq istiqbolda mamlakatlarda aholi jon boshiga o'rtacha jahon yalpi ichki mahsulotini 20 %ga oshirish mumkinligi hamda agar ayollar o'z bizneslarini erkak-

lar bilan bir xil sur'atlarda boshlasa va kengaytirsan, bu jahon iqtisodiyotiga qo'shimcha 6 trln dollargacha qo'shilishi mumkinligi haqida prognoz qilmoqda [4].

"Mastercard" kompaniyasi tomonidan 2017-yilda birinchi marotaba Tadbirkor ayollar indeksi (Index of Women Entrepreneurs) ishlab chiqildi. Kompaniya tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayollar asosan o'z bizneslarini ehtiyojdan kelib chiqib, iroda kuchi bilan rivojlantiradilar. Ayollarning o'z biznesini boshlashiga to'sqinlik qiladigan ikkita asosiy to'siq, ya'ni cheklangan madaniy an'analar va kasbiy o'sish uchun imkoniyatlarning yetishmasligi keltirilgan. Moliyaviy xizmatlardan foydalanish va tijorat faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi qulay muhitni yaratish xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Bu borada xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT ham muhim rol o'ynamoqda. BMT Bosh Assambleyaning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNSTAD) ayollar biznesini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayollarning tadbirkorlik faolligini oshirish maqsadida UNSTAD qator mamlakatlarda xalqaro ta'lim dasturini amalga oshirib, uning doirasida xotin-qizlarning xalqaro tadbirkor bo'yicha malakasi oshirilmoqda [6].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan mazkur masalaga jiddiy e'tibor berilishi, birinchi navbatda, aynan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni yuksaltirish hamda aholini bandligi va iqtisodiyotning turli sohalarida dolzarb yo'nalishlarda yangi innovatsion loyiha va dasturlarni ishlab chiqish uchun xizmat qilishi bilan bevosita bog'liq.

Jamiyatda xotin-qizlar faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy sohada uchraydigan muammolarni aynan ularni tadbirkorlikka keng jalb etish hamda turli imtiyozlarni ajratish orqali yechimini topishga qaratilgan ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Tadqiqotchilar

X. Abduramanov va Sh. Zokirovlarning fikriga ko'ra, dunyoning ayrim mamlakatlarida, xususan, Germaniya, AQSh, Italiya va Yaponiyada ayollar boshchiligidagi kompaniyalar yalpi ichki mahsulotning 50–60 %ini tashkil qiladi va bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi hamda xotin-qizlarning bandligini ta'minlab, ko'plab muammolarning ijobiy hal qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Bunday faollik bilan ayollar milliy va jahon iqtisodiyotini rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shishi va ayollarimizni xalqaro darajada qo'llab-quvvatlanishi ular uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, xususan, huquqiy asoslarni takomillashtirish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Keyingi yillarda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida mamlakatimizda qator aniq natijalarga erishildi.

Birinchidan, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash sohasida xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda sohaga oid 40 dan ortiq qonunchilik hujjatlari va muhim konseptual hujjatlar qabul qilindi [7].

Mazkur hujjatlar doirasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnining mustahkamlanishi, ularning ta'lim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi, bandligini ta'minlash va kasb-hunarga o'qitish hamda ayollarning iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qolaversa, xotin-qizlarni har tomonlama huquq va erkinlarini himoya qilish borasida mamlakatimizda aniq va manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish maqsadida, birinchi navbatda, qonunchilik takomillashtirildi (alohida qonun qabul qilindi), himoya orderi berish amaliyoti hamda 29 ta ayollarni reabilitatsiya qilish markazlari faoliyati yo'lga

qo'yildi, ishonch telefoni ishga tushirildi hamda uyma-uy kirib boradigan amaliyot joriy etildi [8].

Ayollar reabilitatsiya markazi tomonidan ayollarga tibbiy, ijtimoiy psixologik va huquqiy yordam ko'rsatilmoqda. Himoya orderi berish orqali xotin-qizlarga nisbatan turli tazyiq va zo'ravonliklarning oldi olinmoqda [9].

Barcha sohalarda erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida 2030-yilgacha O'zbekistonda gender tengligiga erishish strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada erkaklar va ayollarning teng ravishda huquqlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish hamda insonning fundamental huquqlariga rioya qilish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda gender tenglik targ'ib qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda barcha uchun teng huquqli va sifatli ta'limni ta'minlash, qishloq joylarida qizlarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik, odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan.

Yagona yondashuv asosida vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oliy Majlis Senati qoshida Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. Komissiya bugungi kunda o'z faoliyatida xotin-qizlarning jamiyatda mavqeyini oshirish, ularning muammolarini hal qilish, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, oilaning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish va mustahkamlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda va mazkur yo'nalishlarda yuksak natijalarga erishmoqda.

Shuningdek, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qo-

nuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradigan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida xotin-qizlar ulushi boshqaruv sohalarida 35 %ga, tadbirkorlik sohasida 37 %ga, siyosiy partiyalarda 46 %ga oshdi. Xotin-qizlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2017-yilga nisbatan 5 barobarga ortdi [10].

Ta'lim va ilmni mustahkamlash yo'nalishi-da xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratildi, yangi kvotalar, grantlar ajratildi, magistraturada o'qish istagi bo'lgan ayollar uchun to'lovlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan amaliyot joriy etildi.

Xususan, har yili muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarni oliy ta'limdagi, shuningdek, magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab berish tizimi joriy etildi, xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun (7 yil muddatga) foizsiz ta'lim kreditlari ajratilishi, doktoranturaga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borilishi yo'lga qo'yildi. Ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan har yili 2 trln so'm mablag' yo'naltirilmoqda.

Akademik A. Saidovning fikriga ko'ra, mamlakatimizda xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning dasturiy ishlanmalari, innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek olimlari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida ayniqsa faol izlanmoqdalar. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o'rin tutadi. Ammo tabiiy fanlar, matematika, injiniring, texnologiya, sanoat va qurilish sohalarida nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda ayollarning o'rni hamda mavqeyi ancha quyida ekaniga ham ko'z yumib bo'lmaydi. Binobarin, Nobel mukofoti tarixida ilm-fan sohasida ushbu mukofotga sazovor bo'lgan xotin-qizlar soni atigi 3 %ni

tashkil etishining o'ziyoq buni ochiq-ravshan tasdiqlaydi [11].

Shunga qaramasdan ayrim tadqiqotchilar xotin-qizlar uchun berilayotgan imkoniyat va subsidiyalarga qaramasdan, ularning ijrosini amalga oshirishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan ularning fikriga ko'ra, xotin-qizlarni huquqiy tomondan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan me'yoriy huquqiy asoslar yetarlicha bo'lsa-da, ularni joriy etilishida kamchiliklar hamda moliyaviy savodxonlik bilan bog'liq jihatlari kuzatiladi.

Tadqiqotchi D. Axmedova o'zining ilmiy ishida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu muayyan tizim asosida mavjud muammolarni hal qilib borish, ayollarning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, ularni mulk subyektiga aylantirish va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [12].

Bizning fikrimizcha, birinchidan, huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan normalarni respublikaning barcha hududlarida xotin-qizlarga yetkazish va targ'ib qilish uchun turli seminar va uchrashuvlar tashkil etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yanada oshirish va bu bilan saqlanib qolayotgan kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Ikkinchidan, xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatining barqarorligi ta'minlanmoqda.

Ayollarimiz iqtisodiyotning barcha asosiy "drayver"larida – u sanoat bo'ladimi, qishloq xo'jaligimi, kichik biznesmi, oilaviy tadbirkorlikmi, xizmat ko'rsatishmi, barcha-barchasida o'zlarining muhim hissalarini qo'shib kelmoqda. Buning evaziga bugungi kunda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida ayollarining ulushi 46 %ni tashkil etmoqda. Agar 2017-yilda xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 21 % bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 37 %ni tashkil qilmoqda [13].

Birgina 2022-yilda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan 95 mingdan ortiq xotin-qizlar tadbirkor sifatida davlat

ro'yxatidan o'tkazildi va bugungi kunga qadar ushbu tadbirkor xotin-qizlar tomonidan 184 mingga yaqin yangi ish o'rin yaratildi.

So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbi-larmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trln so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Eng asosiysi – 400 mingdan ortiq xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, turli korxona, tashkilot va muassasalarda imzolananadigan jamoa shart-nomalariga ayollar uchun qo'shimcha imti-yozlar, xususan, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, homilador va yosh bolali ayollarga qo'shimcha ta'tillar berish, 2 yosh-gacha farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan ishlovchi ayollarga qo'shimcha mehnat ta'tili kuni belgilash yoki qo'shimcha dam olish kuni berish kabi majburiyatlar kiritildi. Bu o'z o'rnida, ayol mehnatini bola tarbiyasi bilan qo'shib olib borish, onalik va bolalikni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash imkonini yaratdi.

Uchinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlik qilish borasidagi taklif va tashabbuslari-ni amalga oshirishda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli byurokratik va boshqa turdagi to'siqlar va kamchiliklar ustida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Bunda vaqtincha ishsiz, ijtimoiy-iqti-sodiy ahvoli og'ir, muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarni yanada qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy hayot-da faol ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratil-di, ularning tadbirkorlikka bo'lgan tashab-buslarini amalga oshirish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida turli imtiyozlar, kredit va subsidiyalar ajratildi.

E'tibor beradigan bo'lsak, 2020-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan "Ayollar daftari" tizimi orqali qariyb 2,5 milliondan ortiq xo-tin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy

va psixologik ko'mak berish uchun 5,1 trln so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi.

Natijada xotin-qizlarning iqtisodiy mus-taqilligi mustahkamlandi, daromadlari oshdi va ularning bandligi ta'minlandi.

Bu yerda yana bir muhim jihat bor, ya'ni sohada siyosatimizning muhim nuqtasi – xo-tin-qizlar ijtimoiy huquqlarini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishdir. Bir-gina qishloq xo'jaligining turli sohalarida 1,5 mlndan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi, qishloq ayollari faolligi bilan hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida alohida hissa qo'shadi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ularning doimiy daromad man-bayiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida manzilli ishlash tizimi joriy etildi. Asosiy e'ti-bor ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarning jamiyat va iqtisodiy hayotda faolligini oshirishga qaratildi. Birgina "Ayollar daftari" orqali so'nggi yillarda millionlab xotin-qizlar-ga ko'mak berildi.

2023-yilning o'zida "Ayollar daftari" bo'yicha 1 trln 234 milliard so'm mablag' ajratilib, qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Olimlarning fikricha, ayollar ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizm-lari orasida malaka darajasi, kasbga yo'nalti-rish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, de-mografik omillar, mehnat migratsiyasi va in-novatsion ish bilan bandlik bo'yicha targ'ibot ishlari singari ko'rsatkichlar asosiy o'rin egallaydi. Mehnat bozorida ayollar faolligi-ni past darajasini keltirib chiqargan asosiy sabablar bo'lib, ularning oilaviy yumushlar va farzandlar tarbiyasi bilan mashg'ulligi, uy ro'zg'orda ish haqi to'lanmaydigan uy bekasi sifatidagi vazifalarining ko'pligi bilan ham if-odalanadi. Bolalarning sog'lig'i, ma'lumot da-rajasi, moddiy farovonligini belgilovchi aso-siy omillardan hisoblanadi, shuningdek, ayol-lar bolalarga ular ulg'ayganlarida muayyan vazifalarni bajarishlari uchun onalar namuna bo'lib ham xizmat qiladilar [14].

Xorijiy olimlar ta'kidlaganidek, yigirma birinchi asrda aynan ayollar yuqori texnologiyali kompaniyalarda o'zlarining muhim hissalarini qo'shish orqali davlatlarning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy rolni o'ynaydi [15].

Xulosalar

1. Bugungi kunda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimining normativ-huquqiy bazasini xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish ishlarini davom ettirish, gender ekspertizasi-dan samarali foydalangan holda xotin-qizlar uchun imkoniyat va kafolatlarni yanada kengaytirish, iqtisodiy tazyiqlarning oldini olishga oid normalar tatbiq etish muhim hisoblanadi.

2. Gender tengligini ta'minlashga oid turli stereotiplarning oldini olish, unga oid

huquqiy me'yorlarni aholi orasida keng targ'ib qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

3. Xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga, ayniqsa, axborot texnologiyalari, dasturlash, onlayn tijorat qilish sohalarida o'qitish, ushbu sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratish masalalariga e'tibor qaratish, munosib ish topishlariga ko'maklashish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

4. Qishloq joylaridagi ayollarning yashash prinsiplari va tajribalarini inobatga olgan holda ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish muhim hisoblanadi.

5. Xotin-qizlarning munosib ish bilan bandligini tashkil qilish yondashuvlarini takomillashtirish, bu borada milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. Jumayeva M. Tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar faolligini oshirish [Increasing the activity of women in the development of entrepreneurship]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2024.
2. Experiences of violence and harassment at work: A global first survey, 2022. International Labour Organization and Lloyd's Register Foundation. Available at: https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/dgreports/dcomm/documents/publication/wcms_863095.pdf
3. The role of women in the modern world economy. 2023, October 21. Institute for Economic Research. Available at: <https://economy.kz/ru/Mnenija/id=382>
4. Issues in the field of gender. Available at: <https://www.vseмирnyjbank.org/ru/topic/gender/overview>
5. Abdurahmonov X., Zokirov Sh. Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha horij tajribasi [Foreign experience in supporting women's entrepreneurship and business activities]. Research Institute "Neighborhood and Family" under the Ministry of Neighborhood and Family Support of the Republic of Uzbekistan. *Scientific Progress*, 2022, vol. 3, iss. 2.
6. Bazhenov A.Yu. Women entrepreneurship: outlook potential for economy Development. *Russian Journal of Entrepreneurship*, 2018, May, vol. 19, no. 5.
7. Uzbekistan's experience in ensuring gender equality and creating decent working conditions will be improved based on international standards. 2023, 23 May. Available at: <https://gov.uz/uz/news/view/37040>
8. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha 29 ta namunali markaz tashkil etildi [29 model centers for rehabilitation and adaptation of women were established]. 2021, May 20. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/ayollarni-reabilitatsiya-qilish-va-moslashtirish-boyicha-29-ta-namunali-markaz-tashkil-etildi>

9. Ilmiy tadqiqotlarda gender masalalarini inobatga olish [Taking into account gender issues in scientific research]. *Proceedings of the Summer School. "Family and Women" Research Institute.* Tashkent, Mahalla va oila Publ., 2023, 108 p.
10. Axunova M.X. Innovatsion iqtisodiyotda ayollar tadbirkorligi: muammo va yechimlar [Women's entrepreneurship in the innovation economy: problems and solutions]. *International Journal of Theoretical and Applied Research*, 2022, vol. 2 (1), pp. 7–14.
11. Saidov A. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati: ma'naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida [The role and significance of women in the field of science: in the interpretation of the concepts of spirituality, peace and creativity]. Available at: <http://nhrc.uz/uz/articles/ilm-fan-soasida-xotin-qizlarning-rni-va-aamijati-manavijat-tinchlik-va-bunedkorlik-tushunchalari-talinida>
12. Axmedova D. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari [Socio-philosophical issues of women's entrepreneurship development]. Abstract of PhD thesis. Bukhara, 2023.
13. Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish – doimo e'tiborimiz markazida [Creating decent conditions for the women of our country is always in the center of our attention]. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev at the ceremony dedicated to the International Women's Day. 2023, March 7. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/6013/>
14. Carter N.M., Henry C., Cinneide B.O., Johnston K. Female Entrepreneurship. *Implications for Education, Training and Policy*. 2008, October 7. Routledge. GEM.
15. Minitti M., Arenius P., Langowitz N. Global Entrepreneurship Monitor: 2004 Report on Women and Entrepreneurship. Babson Park, MA and London, Babson College and London Business School, 2005.
16. How Entrepreneurial was Ireland in 2004? The Irish Annual Report, Enterprise Ireland. Dublin, Ireland. Available at: www.gemconsortium.org/

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 2-SON

VOLUME 4 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.2.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 23.04.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 13,5.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 50.

TDYU tipografiyasida chop etildi.